



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 5

MEDIADA SAYLOVLARNI YORITISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Baxitova Jasmina Armanovna,

Qaraqalpaq mamlaketi universiteti studenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada mediada saylovlarini yotiyishning o'ziga xos jihatlari haqida so'z boradi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari saylovga tayyorgarlikning borishi va saylov qanday o'tayotganligini keng yoritishdagi harakatlari, ular faoliyatining asosiy yo'nalishlariga atroflicha to'xtalib o'tilgan.

Kalt so'zlar: Media, saylov jarayoni, siyosiy partiya, saylov kampaniyasi, nomzod, xolislik, elektorat bilan aloqa.

Mamlakatimizdagi barcha ommaviy axborot vositalari saylovga tayyorgarlikning borishi va saylov qanday o'tayotganligini keng yoritishlari ular faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylangan. Erkin va adolatli saylovlar nafaqat muayyan muhitda fuqarolarning o'z ovozlarini berish imkoniyati ta'minlanganligi, balki ularning tegishli nomzodlar va umuman butun saylov jarayoni to'g'risidagi axborotlarga doir huquqlarni kafolatlash bilan ham amalga oshiriladi. Zero, har bir saylovchi o'zining muayyan nomzodga bo'lган ovozini ushbu nomzod haqida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lган taqdirdagina ishonchli va asosli berishi mumkin. Shu jihatdan olganda, demokratik saylovlarni erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Saylovlar jarayonida ommaviy axborot vositalari tomonidan amalga oshiriladigan jamoatchilik nazorati saylovchilarining huquq va erkinliklari nafaqat davlat tomonidan kafolatlanganligini, balki davlat organlari faoliyatida ularning ustuvor bo'lishini ham muayyan darajada ta'minlaydi.

Ommaviy axborot vositalari davlat hokimiyati vakillik organlari saylovi jarayonida saylovchilarni xabardor qilishda xolis va haqqoniy bo'lishlari, nomzodlar va partiyalarning teng-ligi tamoyilini buzmasliklari kerak. Aynan ushbu holat ommaviy axborot vositalarining mazkur jarayonda amalga oshiradigan faoliyatining xususiyati hisoblanadi.

Saylov jarayonlarini yoritishdagi eng asosiy jihat – bu xolislikni ta'minlashdir. Bunda MSK ham, davlat va xususiy ommaviy axborot vositalari ham xolis bo'lishi, barcha nomzodlarga nisbatan bir xil imkoniyat berilishini ta'minlashi lozim.

Shuningdek, o'tgan saylovlar davomida YeXHT Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi tomonidan berilgan qonunchilikka saylov kampaniyasi davrida davlat resurslarini suiiste'mol qilish masalasini hal etadigan aniq normalar



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 5

kiritilishi lozimligi to‘g‘risidagi tavsiyasi inobatga olinib, Saylov kodeksining 44-moddasi quyidagi me’yorlar bilan to‘ldirildi:

“Quyidagilarning saylovoldi tashviqotini olib borishi taqiqlanadi: davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlarining; O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining, O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, boshqa harbiylashtirilgan bo‘linmalar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining, sudyalarining; saylov komissiyalari a’zolarining; diniy tashkilotlar professional xizmatchilarining. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mansabdor shaxslariga o‘z mansab va xizmat mavqeidan saylovoldi tashviqoti vaqtida har qanday siyosiy partiyaning yoki nomzodning foydasiga yoxud unga qarshi foydalanishi taqiqlanadi”.

Saylov qonunchiligiga tegishli normalar kiritilgan bo‘lsada, amalda bu qoidalardan bilib yoki bilmay chekinish ehtimoli yo‘q emas.

Buni ayniqsa davlat va nodavlat telekanallarida efirga uzatiladigan, nomzodlar va ularning dasturlariga bag‘ishlangan turli reklama roliklari, debatlar hamda tok-shoularga saylov targ‘iboti bilan shug‘ullanish qonun bilan taqiqlangan shaxslar – davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari rahbar xodimlarini, diniy soha vakillari yoki huquq-tartibot idoralari vakillari jalb etilishiga bo‘layotgan urinishlarda yaqqol ko‘rish mumkin.

Saylov jarayonlarini yoritib boruvchi barcha OAV, ular davlat yoki nodavlat tashkilot bo‘lishidan qat’i nazar, barcha uchun yagona mezon bu – xolislik bo‘lishi, ayniqsa, davlat mablag‘laridan moliyalashtiriladigan ommaviy axborot vositalari neytrallikni saqlashi saylovlarning adolatli va qonuniy bo‘lib o‘tishidagi zaruriy shartlardan biridir.

Xulosa o‘rnida aytganda, saylovoldi kampaniyasida ommaviy axborot vositalari nomzodlar uchun oshkorlik va ochiqlik muhitini yaratishga ko‘maklashishlari va ular bilan bog‘liq har qanday ochiq axborotni tezkorlik bilan, haqqoniylik, tenglik va xolislik asosida tarqatishlari talab etiladi. Axborot dasturlari va boshqa axborot materiallarida nomzodlarning saylovoldi faoliyatini yoritib berishda ommaviy axborot vositalari teng sharoitlar, shu jumladan dasturning davomiyligi va hajmi bo‘yicha teng sharoitlar yaratib berilishini ta’minlaydi. Bunda pulli efir vaqtini yoki chop etish maydonini ajratish bilan bog‘liq munosabatlar ommaviy axborot vositalari va siyosiy partiyalar o‘rtasida tuziladigan shartnoma asosida amalga oshiriladi.



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 5

Ommaviy axborot vositalarida tarqatiladigan axborot haqiqatga mos bo‘lishi, nomzodlar va siyosiy partiyalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzmasligi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qirg‘izboev M. Fuqarolik jamiyati: siyosiy partiyalar, siyosiy mafkuralar, siyosiy madaniyatlar. - T.: SHarq. 2020.
2. R.Murtazaeva, A.Utamuradov, O.Musaev, D.Inoyatova Jamiyat rivojida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlar faoliyatini takomillashtirish. Uslubiy qo‘llanma. T.: Turon. 7,5 b.t. 2020.Koen Dj., Arato E. Grajdanskoe obЩestvo i politicheskaya teoriya. Per. s angl. - M.: 2021.
3. Муминов Ф. Паблик рилейшнз: история и теория. – Т.: Ижод дунёси. 2004.
4. Arziyev F. Pablik rileyshnz – axborot ortidagi manfaat. //Xalq so`zi, 2003, 4 noyabr.
5. [Relativity of the Genre, Theme, Idea and Image in Artistic Expression.](#) SG Suxanatdinovna.